

## RETROSPEKSIYA USULINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA QO‘LLANILISHI (Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasi misolida)

Shirinova Sitora Xayrullo qizi

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs magistranti

E-mail: [Sitorashirinova95952020@gmail.com](mailto:Sitorashirinova95952020@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada retrospektiv syujetning o‘zbek adabiyotida qo‘llanilishi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Syujet, retrospeksiya, o‘tmish, ijod, bugungi kun, bosh qahramon, epizod, qissachilik.

XX asrda o‘zbek adabiyotida ro‘y bergan yangilanishlar endi ijodkor ommasidan xalq ma’naviyatini oshiruvchi, ushbu yo‘lda poydevor vazifasini bajarishga xizmat qiluvchi asarlar yaratishni talab qiladi. Va bu davrda ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarda nafaqat bugungi kunning balki, o‘tmishning hozirgi insonlar hayotida qoldirgan izlarini fosh etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan edi. “Ijod bu ijodkor uchun o‘zini qiyash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan vos kechish, tom ma’noda fidoyilikdir. Chinakam yozuvchi odamlarning dard-u g‘ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o‘zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo‘layotgan o‘zgarishlardan olishi kerak.”[Rasulova.U, 2012: 5] So‘z san’atkori badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, nigohini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadriyatlar talqiniga qaratadi, albatta. O‘zbek adabiyotining darg‘alaridan biri Abdulla Qahhor esa XX asrning yuqoridaq talablarga to‘la-to‘kis javob bera olgan so‘z san’atkori, yozuvchisi edi. “Muayyan xarakter va holatni aks ettiradigan so‘zni qo‘llab va uni o‘z qolipiga tushgandek o‘rnini topib ishlatish unga maroq bag‘ishlardi. Bu jihatdan u haqiqiy mo‘jizakor adib edi. So‘z uning oldida bamisolitoatkor askar, qaysi ma’no tomon buyruq qilsa shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turadigandek edi. Shunga qaramasdan so‘zlarni ayab, son jihatdan kam so‘z bilan katta va teran fikrlarni ifoda qila olishiga biz taajjublanar edik. Bu unga Anton Pavlovich Chexovdan meros edi. U shaxs – personajlarni, ular tushgan vaziyatni, bu vaziyatda ularning holatini aniq ko‘ra bilar va shu tarzda tasvirlay olar edi. Uning asarlari o‘zidek tabiiy edi”[Qo‘shjonov.M, 1988: 42] Ushbu maqolamizda o‘zbek adabiyotida retrospeksiya usulining qo‘llanilishi xususida so‘z yuritar ekanmiz, bo‘limga asosiy misol tariqasida Abdulla Qahhorning nisbatan kam o‘rganilgan

“Muhabbat” qissasidan foydalanishga qaror qildik. Albatta, Abdulla Qahhorning ijodi o‘qigan sari o‘qiladigan, asarlar. Ammo aynan “Muhabbat” qissasi to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar, maqolalar turkumlari bilan qiziqqanimda bu asarni Qahhor ijodida muvaffaqiyatsiz, shuningdek, uni adib qalamiga hech o‘xshamaydigan tarzda yozilgan degan ma’lumotlarni uchratdim. Xususan, adabiyotshunos olib, adabiyotimiz tanqidchiligining zabardast ijodkori ustoz Ozod Sharafiddinov ham o‘zining 1988-yilga chop ettilgan “Abdulla Qahhor - hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar” kitobida “Muhabbat” qissasi to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirgan: “Abdulla Qahhor” “Muhabbat” qissasini vafotidan bir necha oy oldin, bemorlik to‘shagida yotgan holda yozib tugatgan. Qissaning ancha-muncha sahifalarini o‘qiyotganingizda sizda shunday taassurot tug‘iladiki, Abdulla Qahhor bu asarini tugatolmay qolishidan qo‘rqib, juda shoshib yozgan. Juda ko‘p sahifalarida uning qalami shitob bilan yugurgani sezilib turadi. Shuning oqibati o‘laroq bo‘lsa kerak, ko‘p o‘rinlarda psixologik tahlil zaif chiqqan. Voqealarni kengroq manzaralarda tasvirlash zarur bo‘lgan joylarda axborot berish bilan cheklanilgan. Shuning uchun ham qissasining ayrim sahifalari juda yorqin va ta’sirchan chiqqaniga qaramay, undagi yetakchi qahramonlar ancha nursiz bo‘lib qolgan.”[Sharafiddinov.O, 1988: 234]

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, Abdulla Qahhor bu asarni bemorlik his tuyg‘ularini kechirgan holda yaratgan. Balki shu sabab ham asar syujetida ba’zi o‘rinlarda qahramonlar hatti-xarakatidan ko‘nglimiz to‘imasligining sababi anglashiladi. Ammo bu qissasining o‘ziga xos tomoni ham mavjud, bu uning nomidan ko‘rinib turganidek, muhabbat qissalari turkumiga kirgan asar ekanligidir. Abdulla Qahhorning asarlari bilan to‘la tanish bo‘lgan o‘quvchi uning biror bir asarida sevgi, oshiqlik, muhabbat mavzusi markaziy mavzu bo‘lmaganligini darhol anglaydi. Yozuvchi so‘ngi asarining mavzusini tanlar ekan, bundan uning bir muddaosi bo‘lganligi aniq. Qissada inson hayotida ro‘y beruvchi ijtimoiy voqealarga emas, aynan kishi umriga mazmun bag‘ishlovchi jihatlar hisoblangan – qarindosh, yor-u birodarlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, bir-birini og‘ir hayot sinovlari vaqtida madad berib qo‘llash, hamdardlik, ma’nан suyanchiq bo‘lish kabi jihatlar markaziy o‘rinlarda tasvirlanadi.

Quyida esa biz Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasida retrospektiv syujetning ahamiyatli jihatlari va asar xususida o‘z qarashimiz bilan bo‘lishamiz. Qissa bir onda o‘qiladi. O‘quvchi so‘zlarda g‘alizlik uchratmay tanishadi asar bilan. Asarning eskpozitsiya qismiga “Yetim” sarlavhasi berilib, unda qissa bosh qahramonlaridan biri Anvarning otasining so‘ngi kunlaridagi holati bayon etiladi. Otasi tibbiyat fanlari nomzodi Murod Ali sakkiz oylik bemorlikda “ana ketdi, mana ketdi” holatida to‘sakda yotar ekan, shaharning man-man degan tibbiyat shifokorlarilari ham uning nihoyasiga yetayotgan umrini ming chora va tadbir bilan bir soniyaga bo‘lsa-da, ushlab turishga harakat qilishadi. Bemorning ayoli vafot etib ketgan, uni bu bemorlik holida

parvarish qilishni singlisi Marg‘uba o‘z zimmasiga olgan edi. Ko‘zini ochib bir shiftga, bir singlisiga ko‘z qirini tashlar ekan, Murod Alining bo‘g‘ziga alam tiqilib singlisidan so‘roq so‘raydi:

- Odam ko‘p kelayotganga o‘xshaydi, tugab borayotibmanmi?..

Marg‘uba esa bemor kutganidek, “Yo‘q, siz tuzalasiz aka,- degan so‘zni aytish o‘rniga yig‘lab yuboradi. Bu holga Murod Alining: - Marg‘uba, menga halitdan aza ochma, ko‘z yoshi men o‘lgandan keyin ham kerak bo‘ladi, deyishi, bu holatni kuzatib turgan qahramonimiz Anvarning ammasi bilan orasidagi ziddiyatlarining ilk kurtagi shu yerda ochiladi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Eshikka kelgan yor-birodarlarni bemorning holidan xabardor qilish uchun yo‘lakka chiqqan Marg‘ubaning yo‘lini Anvar to‘sadi va uning bilagidan siltab turib, shivirlaydi:

- Amma, farosat degan narsa bormi, dadamning oldida muncha yig‘laysiz!

Anvardan shu paytgacha bunday muomalani kutmagan Marg‘uba bir on hang-mang bo‘lib turadi va o‘zini o‘nglab olgach: - Dadanga mendan boshqa kuyadigan odam qolgani yo‘q!, - deya javob beradi. Bu gapdan yanada jaxli chiqqan Anvar ammasiga qarata: - Yolg‘on! Kechagina birovga “Bayram ichi o‘lib qolsa o‘ligini ikki kun qanaqa saqlayman?”” deganingizni o‘z qulog‘im bilan eshitdimku! Kuygan odamning ko‘ngliga shunaqa gap keladimi? Kuygan odamning shunaqa degani tili boradimi?!?” deya chiqib ketadi. Va shu ondan e’tiboran Anvarning ammasi Marg‘ubaga nisbatan his-tuyg‘ulari o‘zgarib, Marg‘ubaning asar mobaynida ko‘rsatadigan xiyla-yu nayrangleri, hatti-xarakatlaridan yanada oloviana boshlaydi. “Anvar borib chinor ostidagi so‘riga o‘tirdi, ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan yig‘ini bosishga harakat qildi. Yig‘i uning tomog‘ida pixillagan tovushga, ko‘zidan tirqirab chiqqan yoshga aylandi. Uning nazarida dasasining hayoti bir vaqtlar selday shovillab oqar edi, sakkiz oydirki, bu oqim borgan sari susayib, jildirab qoldi, bu kunlarda esa tobora siyraklashayotgan tomchiga aylandi, Kim biladi, oxirgi tomchi qachon “tik” etib tomadi-yu...”[Muhabbat, 1988: 4]

Anvarning o‘yovlari o‘z isbotini topib, ertasiga saharda Murod Ali og‘irlashib, “aytadiganimni aytay” degach, Marg‘uba eri Javlon bilan natarius toptirib keladi. Eshikni eri bilan qulflab olib, ishni hal qilishadi. Murod Ali vasiyatnomaga qo‘l qo‘ygach, o‘zidan ketib shu bilan uyg‘onmay, Allohga omonatini topshiradi. Anvar go‘yo karaxt ahvolda qoladi. “Tobut ko‘milgach ham shu ahvolda ekan, uning oldiga bir qo‘lida shisha tutib turgan, qovoqlari yig‘idan shishgan, qizargan bir qiz kelib:

- Mard bo‘ling, Anvarjon. Dadangiz dunyoga kelib nuqul odam orttirgan ekanlar, qarang butun shahar, yoshu qari...

Bu so‘zlar Anvarning huvillab qolgan qop-qorong‘u qalbiga go‘y uchqun sochib kirdi, uning ko‘nglinigina emas, butun olamini yoritdi...”[Muhabbat, 1988: 6] Oradan

kunlar o‘tadi, hayot esa davom etar ekan, Anvar dadasingin qirqidan so‘ng, kursda qolgan yillik imtixonini rasmiylashtirish uchun fakultetiga boradi va qaytishda o‘sha tanish qizni uchratadi. Ikkisi hol-ahvol so‘rashishgach, qiz unga yana dadasi Murod Alidan gap olib, “ulug‘ shifokor edilar, meni ham naq o‘lim changalidan yilib olgan edilar. Bu dunyoda shifokorlardan ham insonroq inson bormikan!”, deydi. Qiz sekin-asta o‘zini tanishtiradi. Onasi Muborakxonim va otasi Hakimjonni ham Anvarga tanitadi. Anvar qizni kuzatib, uyiga qaytar ekan, uni uyda Marg‘uba alamlı ingroq bilan kutib turardi... Qissaning “Muhayyo” deb atalgan qismida, endi muallif bevosita bugungi kunni bir on to‘xtatib, o‘quvchini o‘tmish voqealariga jalb etadi. Yuqorida Marg‘ubaning alamdan ingrashi bejizga emas edi. Sababi, Anvarning Muhayyo ya’ni Hakimjonning qizi bilan munosabat paydo qilishi uning uchun go‘yo “hayotning undan qasd olishi” degan gap edi.

“Hakimjon vaqtida xushsurat va shirin zabonligi bilan ko‘p rasida qizlarning yuragini notinch qilgan, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, ko‘pgina ota-onalarning havasini keltiradigan yigit bo‘lib, o‘n yillik maktabda adabiyotdan dars berardi. U paytlarda Murod Alining xotini Rohatbegim ham tirik, Marg‘uba esa ularnikida turib, o‘n yillik maktabda o‘qir edi. Bir kuni u adabiyot imtixonidan o‘tolmadi, unga Rohatbegim “Adabiyotni yaxshi ko‘rar eding-ku, undan nega o‘tolmading?” deb savol berarkan, Marg‘uba turib-turib, “Adabiyotni emas, adabiyot o‘qituvchisini yaxshi ko‘raman”, deb javob beradi. Marg‘ubani bu gapidan so‘ng ne-ne maslahat va odob-axloqdan gapirib yo‘lga solishmasin, u o‘ninch sinfga o‘tishi bilan zimdan Hakimjonga imo-yu karashmalar qilib uni o‘ziga qaratadi. Va natijada bahorga chiqib Hakimjon Marg‘ubagasovchi qo‘yadi.” [Muhabbat, 1988: 8] Yuqoridagilarni o‘qib ham Anvarning ammasi Marg‘ubaning azaldan bir ishni tutumidan tutdimi, bajarmasdan qo‘ymasligi anglashiladi. Shundan so‘ng Hakimjon va Marg‘uba bir-ikki yil yaxshi turmush kechirishadi. Ammo Marg‘uba bu orada na o‘qishga ko‘nadi, na farzandli bo‘lishga. Xatto Hakimjondan yashirib ikki marta farzandini nobud ham qiladi. Bu orada jahon urushi boshlanib, bu albatta o‘zbek xalqining madaniy hayotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganini bilamiz. Bu davr odamlari hisoblangan Hakimjon va Marg‘ubaning ham hayotida qiyin kunlar, ro‘zg‘ordagi yetishmovchiliklar payti boshlanadi. Marg‘uba esa bu qiyinchiliklarga faqatgina Hakimjonning o‘zini misol qilib ko‘rsataveradi. Oiladagi kelishmovchiliklarga tabiiyki, akasi Murod Ali ham aralashgach, Marg‘uba yanada beandisha bo‘lib qoladi. Urush boshlanib, oradan o‘n bir oy o‘tgach, Hakimjon ham urushga otlanadi va yetti oy lagerda xizmat qilib, urushda qatnashadi. Marg‘ubaga yozgan xatlari soni oshsa-da, javoblardan aslo darak yo‘q edi. Yetti oy o‘tib, Hakimjonning batalyonini urushga jo‘nash arafasida, uyga birrovga kirib kelgan Hakimjon, ko‘cha o‘rindig‘ida pista chaqib o‘tirgan Marg‘ubaga duch keladi. Sochini qirqtirgan, yengsiz kalta yeng kofta kiyib olgan, tor kulrang shim

ichida – kaltakesakka o‘xshab turgan Marg‘uba unga tomon kelarkan, unga boshdan oyoq qaragan Hakimjon qorni do‘ppayib turganini ko‘rib hayratdan dong qotadi.

Marg‘ubaning iljayib turib: “Kechirasiz, taqdir ekan..., deyishiga javoban, nima deyishini bilmay qolgan Hakimjon: “Xo‘p, eson-omon qutuling!, - deydi-yu kerz etagini to‘qillatib batalyoni bilan urushga jo‘naydi. Qissada endi Hakimjonning hayotida ruhiy-psixologik holat yuqori o‘rinlarda tasvirlanadi. Yozuvchi Hakimjonning Marg‘uba bilan so‘ngi uchrashuvdagi vaziyatdan so‘ng qanday qilib hayotini o‘nglay olishi jihatini ham sekin-asta ochib beradi. Hakimjon erkaklik nafsoniyati toptalgan bu vaziyat, bu alam bilan urushga jo‘nar ekan o‘ziga o‘zi so‘z beradi: “Ey,Xudo! – dedi, - meni urushdan omon qaytar! Keyin nima qilsang mayli: quloqlarimni tutun, ko‘zlarimdan alanga chiqar!” [Muhabbat, 1988: 9] Hakimjon shu so‘ngi so‘zni aytib urushga jo‘naydi. U urushda hayotining eng og‘ir onlarini yashaydi. Bir tomondan uning ko‘z o‘ngidan faqat to‘plar, tanklar, samalyotlar na’rasi, yer tishlagan o‘liklar, hayqirgan, ingragan tiriklar gavdalanan va yana bir tomonda esa, Marg‘ubani ko‘z o‘ngida qorni do‘ppaygan, pista chaqib tirjayib turgani ko‘z o‘ngidan o‘ngidan o‘tar edi. Bunda adabiyotshunos U.O‘jaboyevning qissa haqidagi quyidagi so‘zları misoldir: “Qissada qahramonlarga yengillik beradigan aylanma yo‘llar, vaziyatga chap berish uchun turli sabab va bahonalar axtarib o‘tirilmaydi. Ularni imkon qadar qanchalik og‘ir bo‘lsa-da, haqiqat bilan yuzma-yuz qilish, muhimi, shu haqiqatni qahramonlarning o‘zlariga anglatish yo‘lidan boriladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, goh pinhon, gohida esa oshkora bir fofija ohangi asarning boshidan oxirigacha uzluksiz davom etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlarning taqdiri bilan bog‘liq dramatizm tasvirini berishda boshqa vositalarning birgalikda qo‘llanishi buning yorqin dalilidir.” [O‘jaboyev. U, 2017: 56]

Xususan, Abdulla Qahhor ham Hakimjonning keyingi taqdirida tragik vaziyatlarni yuzaga keltirish , qahramonlarning qalb kechinmalarini ifodalash, ularning murakkab vaziyatlardan o‘ta olishida o‘zini tuta bilishini quyidagi o‘rinlarda ifodalaydi. Urush so‘ngida Hakimjon shiminining pochasini osiltirib, ikki qo‘ltiqtayoq bilan chiqadi. Hakimjon urushdan so‘ng uyiga qaytgach, yaqinlari uni xuddiki hayotida Marg‘uba bo‘limgandek qarshi olib, unga eri urushning boshida halok bo‘lgan Muborakxonim degan juvonni olib berishadi. Oradan bir yil o‘tgach, ular qiz farzand ko‘rib, ismini Muhayyoxon qo‘yishadi. Asarda yozuvchi Muhayyoni o‘quvchiga bir onda tanitadi qo‘yadi, so‘zlardan foydalanar ekan u o‘quvchi qalbini ta’sirlantiradigan jumlalarni terib yozgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi: “Qop-qora tunda charaqlagan yulduzlar, qish qa’ridan bahor quchog‘iga otilib chiqqan rasida qizlarning jamoli ta’rifga sig‘adimi? Muhayyo keksa tabiat bor hunarini, tamomi makru hiylasini ko‘rsatib oro bergen o‘shanday rasida qizlardan biri, lekin yana allanimasi bilan mahallaning bino qo‘ygan bor bisoti bo‘lib yetishdi”[Muhabbat, 1988: 11]

Ota-onasi tugul, butun mahallaning asragan bir chechak guli, kimgadir orzudagi yor, kimgadir havas keltirgulik kelinchak bo‘lishga niyat qilingan Muhayyoni bir kuni kutilmagan tarzda barchani lol qilib, Salimjon degan yigitga unashirishadi. Hafsala qilgan qo‘shnilarning surishtirishidan bo‘lajak kuyovning student ekanligi, ko‘rgan odamning havasini keltirgudek ekanligi, yana bu ikki yoshni bir-biriga xudoning o‘zi bichib tikkan, ikkovi dunyoning ikki burchida bo‘lsa ham bir-birini qidirib topishi anglashiladi. To‘y ham bo‘lib o‘tadi, ammo Salimjon bilan Muhayyoning orasida ziddiyat yuzaga keladi. Bunga sabab esa to‘yda kuyovjo‘ralardan biri bo‘lgan Naimjonning tilagiga javoban, Muhayyoning “so‘zlaganiga qulluq, so‘zni o‘rinlatganiga tasanno” ma’nosida jilmayib bosh egib qo‘yishi edi. Shu ondan e’tiboran Salimjonning rashki ortsa ortadiki, ammo susaymaydi. Bunda uning Muhayyoga qarata kin va adovat to‘la nigoh bilan aytgan quyidagi so‘zlaridan ham bilishimiz mumkin: “- Men sizni ulgurji olganman, xonim, ko‘tara savdo bo‘lgansiz! Ko‘zingiz ham, qo‘lingiz ham, jilmayishingiz ham shunga kiradi!”[Muhabbat, 1988: 12]

Bu gap-so‘zlardan so‘ng Muhayyo bilan Salimjonning kinodan chiqib, musqaymoq yeish bahonasida parkka kelishlari, atayin qilganday u yerda Naimjonnini uchratishlari, bu holatni xuddiki Muhayyoning atayin o‘zi keltirib chiqargan degan gumonga borgan Salimjonning fig‘onini oshiradi. Shunday kunlarning birida Salimjon yomon bir tush ko‘radi. Tushida bir yovvoyi barzangi Muhayyoni oyog‘idan sudrab ketayotgan emish-u, Muhayyo esa bundan xursand qiqirlab kularmish. Salimjon uyqudan uyg‘onib, nima bo‘lganini anglamasdan turib, Muhayyoni bo‘g‘a boshlaydi. Karavotgan jon talvasasida gursillab tushib hushidan ketgan Muhayyoning bo‘ynidagi qizil sharfni laxta-laxta qon deb o‘ylagan Salimjon dod solib, uyidagilardan yordamga chaqiradi. Muhayyoni shu zahotiyoy shifoxonaga olib borishadi. Mana shu voqeal Muhayyoning bo‘lim boshida Anvarga aytgan so‘zlarini ochib beradi. Sababi o‘lim bilan olishgan Muhayyoni kecha-yu kunduz qarab, hayotga qaytargan Anvarning otasi Murod Ali edi. Muhayyo sog‘aygach, to‘g‘ri ota uyiga qaytadi. Salimjonning na o‘zi, na oilasi Muhayyoni ko‘rishga kelishmaydi. Aksincha, “kelinning bosinqiraydigan kasali bor ekan, tushida yigitini ismini aytib qo‘ydi”, deb mahallada gap tarqatishadi. O‘sha uy ostonasidan zada bo‘lgan, o‘q yeb yiqilgan qushday butun vujudi bilan u yerdan qochishga talpingan Muhayyo ham ortiq u uyga qaytmaslikka qaror qiladi. Bir necha oydan so‘ng esa, voqeani ota-onasiga anglatadi va quda tomon jo‘natib yuborgan seplarining yukiga; “Men o‘zimga tegishli hamma narsani, ya’ni jonimni olib kelganman, hech qanaqa da’vom yo‘q”, deb xat yozib qaytarib yuboradi.

Qissaning “Vasiy” deb nomlangan qismida esa, yana Marg‘ubanining buguni va kechmishi to‘qnashadi. Marg‘uba Hakimjondan keyin yana to‘rt marta erga tegib, ajrashadi. O‘zini xuddi besh eridan ham yolchimaganday his qiladigan Marg‘uba endi

ulardan o‘ch olish istagida o‘zidan besh yosh kichik, tabiatidan o‘zi mol orttirgandan ko‘ra, mol-dunyosi bor xotinni istaydigan Javlon degan yigitga tegib oladi. Javlonning o‘lgan xotinidan bir qizi bo‘lib, ismi Muattar, internatda edi. Doktor Murod Ali Hakimjonga qilgan qilmishidan keyin singlisidan yuz o‘girgan bo‘lishiga qaramay, Anvarning onasi olamdan o‘tgach, bir oy o‘tmay, Marg‘uba bilan erini o‘z uyiga ko‘chirtirib keladi. Ammo bu yerga kelgach ham Javlon tiyilmaydi, uning har qancha jafosini cheksa-da, akasidan istohola qilib, uyalganidan Marg‘uba tishini tishiga qo‘yib chidab yashab kelar edi. Ana endi uning oyog‘iga yana bir kishan tushgan ediki, bu Murod Alidan qolgan hovli-joy, mashina, kassadagi naqt pul, Anvarning onasidan qolgan bir dunyo taqinchoqlar bo‘lib, u yuqorida aytganimiz bekorga alamdan ingramagan edi. Anvarning Hakimjonning qizi bilan aloqa bog‘lashi va butun mol-dunyoga Muhayyoning ega chiqishidan xavfsirashidan edi bularning bari. Mana shu onda qissada konflik yuzaga kelib, uning yechimiga yozuvchi har bir qahramonning his-tuyg‘usi va harakati orqali olib boradi o‘quvchini. Abdulla Qahhor qissada syujetlarni bir zanjir tizmasida tiza olgan. Marg‘uba yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatni oldini olish uchun Anvarni ham kutib o‘tirmay, hovliqib, juda ko‘p tadorik ko‘rib, Muhayyoning onasi Muborakxonimning ishxonasini qidirib ketadi va toptirib, barchaning oldida “qizini yig‘ib ololmagan” sifatida janjal ko‘taradi. Muborakxonim Marg‘ubaning gapini anglamagan holda, uni chetga tortib, sal bosgach, anqlik kiritishga va’da berib Marg‘ubani ortga qaytaradi. Shu kuni kechga yaqin taqillagan darvozani ochish uchun chiqqan Anvar “sochlari to‘zg‘igan, ko‘ylak yoqasi yirtilgan.” Muhayyodan Marg‘uba ko‘rsatgan tomosha tafsilotini eshitib, ammasi bilan oralaridagi ziddiyat yanada uzayadi... Qissada Marg‘ubaning harchand harakat qilishiga, hatto o‘gay qizi Muattarni Anvarga olib bermoqchi bo‘lishi, maqsadi uchun hech narsadan qaytmasligi yo‘lida harakat qilishidan qat’iy nazar, qissa so‘ngida Anvarjon va Muhayyoning sof muhabbatи g‘alaba qozonadi. Bunda na otasidan qolgan katta boylik va na eski urf-odatlar g‘ov bo‘la olmaydi.

Adabiyotshunos Saydulla Mirzayev o‘zining “XX asr o‘zbek adabiyoti” kitobida “Muhabbat” qissasi to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Abdulla Qahhorning ushbu qissasida ishontirish quvvati kuchli. Chunki yozuvchi barcha obrazlarning harakatini, yurish-turishini, fe'l-atvorini, o‘y-hayollarini mantiqan asoslashga va tabiiy qilib ifodalashga erishgan. Xarakter yaratishda, asar g‘oyasini ochishda ruhiyat tahlili va til imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. “Muhabbat” qissasining syujeti qiziqarli. Asardagi voqealar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Bu esa, voqealarning chiroyli kompozitsiyasi doirasida rivojlanib boradi. Adib obrazlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni tasvirlash, yorqin hayotiy manzaralar yaratish, mustahkam syujet zanjirini yasash yasash orqali asarning asosiy syujet yo‘nalishini vujudga keltirgan.” [Mirzayev.S, 2005: 234] Shu o‘rinda tadqiqotimizning asosiy izlanishi

bo‘lgan retrospektiv syujetning ushbu qissada qo‘llanilish nuqtasi ham o‘z nihoyasiga yetgan. Abdulla Qahhor butun bir qissani retropektiv syujet asosida qurmasdan, balki qissaning ma’lum o‘rinlarida hozirgi voqealarini to‘xtatib qo‘yib, o‘tmish voqealarini yoritadi va bu o‘rinda retrospektiv syujetni o‘z o‘rnida qo‘llab, ushbu voqealar natijasi va sababi o‘laroq bugungi kun vaziyatlari yuz berayotganligini o‘quvchiga hikoya qilib beradi. Syujetda tragik qahramonlar, ularning o‘zini tutishi va hatti-xarakatlari ortida muallif muhabbatning har qanday yovuz hissiyotlardan ustun ekanligini isbotlab, uning g‘alabasi bilan qissani yakunlagan. Abdulla Qahhor bu qissada o‘zining so‘ngi istagi, so‘ngi kechinmalarini yoritib ketganday tuyuladi, go‘yo asar bilan tanishib chiqqan kitobxonga.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. A. Qahhor. Muhabbat. - T., G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1998.
2. M. Qo‘shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. - T., Adabiyot va san’at nashriyoti,1988.
3. S. Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. - T., Yangi asr avlod,2005.
4. O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor. - T., Yosh gvardiya nashriyoti,1988.
5. U. O‘jaboyev. Adabiyot – adabiyot ko‘zgusi. – T., Turon zamin ziyo, 2017.
6. U. Rasulova. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. – T., Fan nashriyoti, 2012